



ASARXADDON DAVRIDA: OSSURIYA IMPERIYASI.

Ziyotov Zayniddin Abdusattor o'g'li

Mirzo ulug'bek nomidagi

O'zbekiston milliy universiteti

Tarix fakulteti Tarix(mamlakatlar va yo'nalishlar)

2-kurs talabasi

E-mail :zayniddinziyotov@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15447454>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ossuriya imperiyasining eng kuchli va nufuzli hukmdorlaridan biri bo'lgan Asarxaddon davrida davlatning siyosiy, harbiy va madaniy hayoti yoritiladi. Asarxaddon (miloddan avvalgi 681–669-yillar) davrida Ossuriya o'z qudratining cho'qqisiga chiqib, Misrgacha bo'lgan hududlarni egalladi va o'zini mintaqaning yagona superdavlati sifatida namoyon qildi. Maqolada shuningdek, uning ichki islohotlari, tashqi siyosati, harbiy yurishlari va diniy siyosati tahlil qilinadi. Asarxaddon davrida markaziy hokimiyat mustahkamlanib, imperiya boshqaruvi yanada takomillashgani, hamda bu davr Ossuriya tarixida o'ziga xos taraqqiyot bosqichi bo'lganligi asoslab beriladi. Tadqiqot tarixiy manbalar va arxeologik topilmalar asosida yozilgan bo'lib, qadimgi Yaqin Sharq tarixini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Shoh, Nineviya, Sidon, Kikiliya, Harran, Zikkurat, Xaldey, Kalxu, taxt, valiaxd, Misr, Nippur, Urartu.

Аннотация: В статье рассматривается политическая, военная и культурная жизнь государства в период правления Асархаддона, одного из самых могущественных и влиятельных правителей Ассирийской империи. При Асархаддоне (681–669 гг. до н. э.) Ассирия достигла пика своего могущества, завоевав территории вплоть до Египта и утвердившись в качестве единственной сверхдержавы в регионе. В статье также анализируются его внутренние реформы, внешняя политика, военные походы и религиозная политика. Утверждается, что во время правления Асархаддона центральная власть была укреплена, а имперское управление еще больше усовершенствовалось, и что этот период был уникальным этапом развития в ассирийской истории. Исследование основано на исторических источниках и археологических находках и имеет важное значение для изучения истории древнего Ближнего Востока.

Ключевые слова: Царь, Ниневия, Сидон, Киликия, Харран, Зиккурат, Халдея, Калху, Трон, Наследный принц, Египет, Ниппур, Урарту.



Abstract: This article examines the political, military, and cultural life of the state during the reign of Esarhaddon, one of the most powerful and influential rulers of the Assyrian Empire. During the reign of Esarhaddon (681–669 BC), Assyria reached the peak of its power, occupying territories as far as Egypt and establishing itself as the sole superpower in the region. The article also analyzes its internal reforms, foreign policy, military campaigns, and religious policy. It is argued that during the reign of Esarhaddon, central power was strengthened and the administration of the empire was further improved, and that this period was a unique stage of development in the history of Assyria. The study is based on historical sources and archaeological finds and is of great importance in the study of the history of the ancient Near East.

Keywords: King, Nineveh, Sidon, Cilicia, Harran, Ziggurat, Chaldea, Kalhu, Throne, Crown Prince, Egypt, Nippur, Urartu.

Kirish: Qadimgi Yaqin Sharq sivilizatsiyalari orasida Ossuriya imperiyasi o'zining harbiy kuchi, markazlashgan boshqaruv tizimi va keng hududiy ekspansiyasi bilan ajralib turgan. Ayniqsa, miloddan avvalgi VII asrda hukmronlik qilgan podsho Asarxaddon davri Ossuriyaning siyosiy va harbiy qudrati eng yuqori cho'qqisiga chiqqan davr sifatida tarixda muhim o'rin egallaydi.

Asarxaddon nafaqat imperiyani ichki nizolardan xalos qilib, markazlashgan boshqaruvni tikladi, balki tashqi yurishlar orqali Ossuriya hududlarini kengaytirishga muvaffaq bo'ldi. U Misrni zabt etib, o'zining siyosiy salohiyatini xalqaro maydonda yanada kuchaytirdi. Ushbu mavzuda Asarxaddon hukmronligi davrida Ossuriya imperiyasining siyosiy, harbiy va madaniy taraqqiyoti, shuningdek, uning mintaqadagi geosiyosiy ta'siri tahlil etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi: Ushbu mavzuda tarixiy-huquqiy, taqqoslama, tahliliy va tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi. Avvalo, Asarxaddon davriga oid asosiy tarixiy manbalar – Ossuriya klin yozuvlari, shoh farmonlari, arxeologik topilmalar va zamonaviy tarixchi olimlarning ilmiy ishlari o'rganildi. Tadqiqot davomida Asarxaddon hukmronligining siyosiy, harbiy va ijtimoiy aspektlari tizimli ravishda tahlil qilinib, ularni oldingi va keyingi Ossuriya hukmdorlarining faoliyati bilan taqqoslash asosida umumiy xulosalar chiqarildi. Shuningdek, mintaqadagi boshqa sivilizatsiyalar bilan diplomatik va harbiy aloqalar tarixiy voqealar ketma-ketligi asosida tahlil qilindi. Metodologik yondashuvlar tarixiy jarayonlarning chuqurroq anglanishiga va Asarxaddon davridagi Ossuriya imperiyasining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga xizmat qildi.



Tahlil va natijalar: Sinaxxeribning bir necha xotinlari, o'ndan ortiq o'g'illari bo'lgan. Aynan shu jarayon taxt vorisligi masalasida turli nizolarni keltirib chiqargan. Sinaxxeribning birinchi xotini malika Toshmetu-Sharratdan tug'ilgan to'ng'ich o'g'li Ashshur-nadin-Shumini taxt vorisi etib tayinlaydi. Mil.avv. 713-yilda tug'ulgan Asarxaddon Sinaxxeribning ikkinchi xotini malika Zakutuning o'g'li edi.[1]

Sinaxxerib o'zining to'ng'ich o'g'li taxt vorisi Ashshur-nadin-Shumini Bobil ustidan hukmronlik qilish uchun tayinlaydi. Shahzoda o'z vazifalarini bajarayotib, elamliliklar tomonidan asir olinadi va Elamga olib ketiladi.[2] Bu xabarni eshitgan Sinaxxerib o'g'lini qaytarish uchun Elamga yurish boshlaydi, ammo bu yurish muvaffaqiyatsiz tugaydi. Bu yurish shahzoda taqdirini ham belgilaydi. Manbalarda qayt etilishicha Ashshur-nadin-Shumi asirlikda mil.avv. 694 yilda o'ldiriladi. Bu voqealardan so'ng taxt vorisligi masalasi ochiq qoladi.[3] Ossuriyada azaldan podsho taxt vorisligiga o'zining to'ng'ich o'g'lini tayinlar edi. Bo'lib o'tgan voqealardan so'ng podsho ikkinchi marta taxt vorisini tayinlashga to'g'ri keldi. Sinaxxerib o'zining sevimli rafiqasi malika Zakutu va Bobilning zodagonlari tazyiqi ostida malika Zakutudan bo'lgan kichik o'g'li Asarxaddonni taxt vorisi deb rasmiy e'lon qiladi. Podsho bu qarorni xalq yig'ini vaqtida ham e'lon qiladi.[4] Uning bu norozi bo'lgan katta o'g'illari Adarmalik va Sharrutsur Sinaxxeribdan o'z qarorini bekor qilishni so'raydilar. Sinaxxerib ikkilanib qoladi, lekin o'z qarorini bekor qilmaydi.[5] Bu siyosatdan norozi bo'lgan aka-ukalar Adarmalik va Sharrutsur otasidan o'ch olishga kirishadilar. Bunga o'ziga xos sabab ham bor edi albatta, chunki taxt vorisligiga nomzodlar asosan katta farzandlar bo'lishardi, ammo Sinaxxerib katta o'g'illari turib kichik o'g'lini taxt vorisi etib tayinlashi, ularga charmandalik sifatida qabul qilindi va bu uyatdan aka-ukalar isyon bilan qutilmoqchi bo'ldilar. Ular Asarxaddonning yo'qligidan foydalanib, Sinaxxerib Kalxu shahrida xudo Ninurti ibodatxonasiga ziyoratga borganida o'ldirdilar va hokimiyatni egallamoqchi bo'lganlarida ularga ukalari qarshi chiqadi. Asarxaddon isyonni darhol bostirib Nineviyada taxtni egallaydi va Ossuriya podshosi bo'ladi.[6]

Hukmronligining dastlabki yillarini Asarxaddon o'z akalariga qarshi kurashdan boshlaydi. Bu vaqtda mamlakatda isyonkor kuchlar avj olgan, Asarxaddon esa ularni bostirishga va mamlakatda tartibni saqlashga harakat qilardi. Buning ustiga esa akalari Adarmalik va Sharrutsur Urartu shohidan yordam olib katta qo'shin bilan Nineviya tomon harakatlanayotgan edi.[7] Nineviya atrofida aka-ukalar o'rtasida jang boshlandi, jangda Asarxaddon qo'shinlari g'alaba qozonadi va uning xalq orasida obro'yi oshib ketdi. Tashqi




dushmanlardan qisman xalos bo'lgan hukmdor endi, mamlakatda doimiy tinchlikni saqlashga harakat qila boshlaydi. Bu davrda Ossuriya uchun eng og'riqli nuqta bu Bobil edi. Birinchidan, Bobilda xaldey qabilalari hokimiyatni egallash uchun doimiy tartibsizlik chiqarar edi.[8]

Ikkinchidan Sinaxxerib Bobildagi isyonlarni bostirish uchun shaharni vayron qilgan, bu esa Bobil kohinlarining noroziligiga sabab bo'lib, Bobilda Ossuriyaga nisbatan nafrat paydo bo'lgan edi. Bu tartibsizliklarning barchasini yo'q qilish yo'li bilangina Asarxaddon o'z davlatini mustahkam qila olardi. Asarxaddon hokimiyatni egallashi bilanoq birinchi qilgan ishi Bobilda o'z hokimiyatini mustahkamlash va bu orqali Bobil kohinlarining qo'llab-quvvatlashishiga erishish edi. Shu maqsadda otasi vayron qilgan shaharni mil.avv 679-yilda qayta ta'mirlashni boshlaydi, hatto Asarxaddon buyrug'i bilan mustahkam va hashamatli bo'lgan Etemenanki zikkurati quriladi. Albatta bu kabi ishlar o'z samarasini bera boshlaydi. Bobil kohinlari Asarxaddonni buning evaziga doimiy qo'llab-quvvatlash, uni Mardukning yerdagi ramzi sifatida xalq orasida e'tirof eta boshlaydi. Bobildagi ishlarni yaxshilab olgan hukmdor endi be'vosita o'z davlatida ham keng ko'lamli ishlarni amalga oshira boshlaydi. Poytaxtda istiqomat qiluvchi aholi ma'lum muddat soliqlardan ozod etildi, Sippar, Nippur, Borsippa, Harran kabi shaharlar alohida viloyatga aylantirilib, ularga maxsus vakil tayinlandi. O'zining hokimiyatini qonuniylashtirib olgan hukmdor, aholining sodiqligiga ham erishdi. U ibodatxonalarni saqlash va ta'mirlash uchun yangi soliqlarni ham joriy etdi.[9]

Asarxaddon Ashshurda bo'lib turgan vaqtlarda Bobilda hokimiyatni Nabu-zer-kiti-lishar egallab oladi. Nabu-zer-kiti-lishar Sargon II va Sinaxxeribning ashaddiy dushmani bo'lgan Marduk-apla-iddin II ning o'g'li bo'lganligi. Moajoroni yanada jiddiylashtirdi. Chunki Asarxaddon bu sulolani batamom yo'q qilmoqchi edi. Qo'zg'olon ko'targan Nabu-xer-kiti-lishar mag'lubiyatga uchratilib, uning o'zi o'ldiriladi va Bobilda Asarxaddon hokimiyati qayta tiklanadi. Bu g'alabalardan so'ng Asarxaddon Ossuriya hududiga bostirib kirgan kimmeriylarni mag'lub etib, Kichik Osiyoning ko'plab qirolliklariga qarshi kurash olib bordi va ularni bo'ysundirdi yoki soliq to'lashga majbur qildi.[10]

Mil.avv. 680 yilda Finikiya shaharlari asta sekin itoatkorlikdan chiqib keta boshladi. Qo'zg'olon boshida Kikiliya hukmdori bilan ittifoqqa kirgan Sidon shohi Abdimilkutti turardi. Tez orada ularga yana bir qancha Suriya shaharlari qo'shiladi. Bu bilan Ossuriyaga qarshi yana bir koalitsiya tuzildi. Biroq ittifoqchilar Asarxaddonga qarshi to'liq kurash olib borokmadilar. Mil.avv. 677-yilda ular mag'lubiyatga uchradilar, ko'p shaharlar, jumladan Sidon ham vayron



bo'ldi. Endi Asarxaddon araab qabilalariga qarshi yurish boshlashga qaror qildi. Asarxaddon tarixiga oid qiziqarli voqealardan biri ham aynan shu hududda sodir bo'ldi. Mil.avv. 676-yilda Asarxaddon arab mulkiga bostirib kiradi. Bir qancha hukmdorlar o'ldirildi, ossuriyaliklar xazinalar va xudo haykallarini Nineviyaga olib ketishdi, ammo bir shohgina tirik qoladi.[11] U Asarxaddon bilan uchrashish uchun piyoda Nineviyaga keladi. Piyoda kelishiga sabab ossuriyaliklar uning davlatini shu qadar talon-taroj qilgan edilarki, hatto bir dona ham ot yoki ulov qolmagan edi. Poytaxtga kelgan bu podshohni Asarxaddon qabul qiladi va u bilan suhbatlashadi. Podsho Asarxaddondan o'z davlatidan olib ketilgan haykallar va boyliklarni qaytarishni so'raydi. Asarxaddon esa uning jasoratiga qoyil qolib, uning mulklarini qaytarib beradi va uni o'ziga himoyachi qilib tayinlaydi.

Asarxaddonning keyingi yurishlari Elam va Ossuriya o'rtasidagi chegarani himoya qilish bo'ldi. Urush bilan emas diplomatiya orqali masalani hal qilishga uringan Asarxaddon Elam shohi Xumban-Xaltosh II ni o'z agentlari orqali o'ldirdi va Elam taxtiga o'ziga sodiq vakil Urtakini qo'yadi. Urtaki ham Asarxaddonga minnatdorchilik ta'riqasida Elamda uzoq vaqtdan beri bo'lgan xudo haykallarini bobilliklarga qaytarib beradi.[12]

Xulosa: Asarxaddon davri Ossuriya imperiyasi tarixida eng muhim bosqichlardan biri bo'lib, bu davrda imperiya siyosiy va harbiy jihatdan eng yuksak darajaga yetdi. Asarxaddon nafaqat ichki islohotlar orqali markaziy hokimiyatni mustahkamladi, balki tashqi siyosatda ham muhim yutuqlarga erishdi. Ayniqsa, Misr ustidan qozonilgan g'alaba Ossuriyaning Yaqin Sharqdagi ta'sir doirasini kengaytirdi. Shu bilan birga, uning diniy siyosati va davlat boshqaruvi tizimidagi yangiliklari imperiyaning barqarorligini ta'minlashga xizmat qildi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Asarxaddon o'z davrining zukko siyosatchisi, mohir harbiy yetakchisi va dono islohotchisi bo'lgan. Uning faoliyati Ossuriya imperiyasi qudratining saqlanib qolishiga asos bo'lgan va keyingi tarixiy bosqichlarga kuchli zamin yaratgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qadimgi dunyo tarixi xrestomatiyasi. O'quv qo'llanma. R.Rajabov. - Toshkent.: «Adib» nashriyoti, 2013. 243. B.
2. Avdiyev. V.A. Qadimgi sharq tarixi.- Toshkent: 1964. 410 B.
3. Авдиев В.А. Ассария, В кн: Большая советская энциклопедия. 1951. С 264-270.
4. Диаконov И.М. Развитие земельных отношений в Ассирии. Л.1949. С 152.
5. Olmstead A. History of Assyria. New York. 1923. P 387.





6. Smith S. Early history of Assyria to 1000 B.C New York. 1928. P 418.
7. Kabirov A. Qadimgi sharq tarixi. Toshkent:- «Tafakkur» nashriyoti, 2016. 141-145. B.
8. Choriyev SH. X. Harbiy tarix. Jizzax.: 2015. 17-21. B.
9. Rajabov R. Jahon tarixi. :Toshkent- «Yangi asr» nashriyoti, 2015. 144-151. B.
10. Кузищин В.И. История древнего востока. Москва: «Высшая школа» 1988. С 139-150
11. Rajabov R. Qadimgi sharq harbiy san'at tarixi Toshkent: «Yangi asr avlodi» nashriyoti, 2018. 43-60. B.
12. Мочалов М. Ю. Ассирийская Держава. От города-государства-к империи. Москва: «Вече» 2015. С 119-131.

